



Ayollar daftariga kiritilgan ayollar bilan ishlash faoliyati: Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash tizimining O'zbekistondagi o'rni

Bahriiddinov Sherzod
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
kursanti*
Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan "Ayollar daftari" tizimining maqsadlari va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada tizimning jamiyatdagi roli, profilaktika inspektorlarining vazifalari, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va tizimni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritiladi. Tizimning ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand ayollarga manzilli yordam ko'rsatishda qanday imkoniyatlar yaratishi hamda ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga ko'maklashishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Profilaktika inspektori, oilaviy nizolar, ajrimlar, barvaqt profilaktika, ichki ishlar organlari, jamiyat barqarorligi, himoya orderi.

Annotation: This article analyzes the goals and significance of the "Women's Registry" system, aimed at supporting and protecting the rights of women in need of social assistance in Uzbekistan. The article discusses the system's role in society, the duties of preventive inspectors, areas of social and economic support, and measures needed to improve the system. It highlights the system's capacity to provide targeted assistance to women in need of social protection and to promote their active participation in economic and social life.

Аннатация: В данной статье анализируются цели и значение системы «Женская книга», направленной на поддержку и защиту прав женщин, нуждающихся в социальной помощи в Узбекистане. В статье рассматривается роль системы в обществе, задачи профилактических инспекторов, направления социальной и экономической поддержки, а также меры, необходимые для совершенствования системы. Освещаются возможности системы для оказания адресной помощи женщинам, нуждающимся в социальной поддержке, и содействия их активному участию в экономической и социальной жизни.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida aholining himoyaga muhtoj qatlamlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali ayollarning jamiyatda o'z o'mini topishi va turmush

sharoitlarini yaxshilashga yordam beradigan "Ayollar daftari" tizimi alohida o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan ushbu tizim, ayollarga ijtimoiy, huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Ushbu maqola "Ayollar daftari"ning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, tizimdag'i muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi.

"Ayollar daftari" jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashning innovatsion mexanizmidir. Tizimning asosiy maqsadi - ijtimoiy yordamga muhtoj ayollarni aniqlash va ular bilan tizimli ishslash orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, bandligini ta'minlash va huquqiy himoyasini kuchaytirishdir. Shu maqsadda har bir hududda maxsus ro'yxatlar shakllantiriladi va unda ishtirok etayotgan ayollar turli xizmatlar bilan ta'minlanadi. "Ayollar daftari" ayollarning jamiyatda faol ishtirok etishlarini rag'batlantiradi va ularning huquqlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayollarga davlat va jamiyat e'tiborini kuchaytirish masalasiga alohida ahamiyat qaratib, hech bir ayol davlatning e'tiboridan chetda qolmasligi kerakligini ta'kidlagan. Buning natijasida "Ayollar daftari" tizimi mahalliy darajada ijro etilayotgan bo'lib, ehtiyojmand ayollar uchun o'ziga xos "ijtimoiy himoya to'ri" sifatida xizmat qilmoqda.

"Ayollar daftari" orqali amalga oshiriladigan faoliyatda profilaktika inspektorlari alohida o'rin tutadi. Ular o'z hududidagi ehtiyojmand ayollarni aniqlash, ularning muammolarini o'rganish va zarur yordam choralarini belgilash kabi vazifalarni bajaradi. Profilaktika inspektorlari ayollar huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi va ularning turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashadi. Bu jarayonda inspektorlar nafaqat davlat idoralari, balki nodavlat tashkilotlar va jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bor, ishsiz yoki daromad manbaiga ega bo'lmanayotgan ayollarga maxsus yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, ayollarga psixologik va huquqiy yordam, kasbiy o'qitish xizmatlari taqdim etilib, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga katta e'tibor qaratiladi.

«Ayollar daftari»ga 30 yoshdan oshgan quyidagi xotin-qizlar kiritiladi:

ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar — bandligi Ta'minlanmagan, ishslash istagida bo'lgan va daromad manbaiga ega bo'lmanayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar; tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar — bandligi ta'minlanmagan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar;

boquvchisi bo'lmanayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar — boquvchisi vafot etgan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, ruhiy kasallikka chalingan, I-II guruh nogironligi bo'lgan hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lmanayotgan, bedarak yo'qolgan (sud qaroriga asosan) ehtiyojmand xotin-qizlar, shuningdek, nikohi bekor qilingan ehtiyojmand xotin-qizlar va ehtiyojmand yolg'iz onalar (FHDYo organlarining ma'lumotnomasi asosida);

ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar — mehnatga layoqatsiz, o'zgalar parvarishiga, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar;

uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar — noturar joylarda istiqomat qilayotgan, doimiy yashash uchun turar joyi bo'lmanayotgan, bir xonadonda (kichik

hovlida) uch va undan ortiq oila yashayotgan (uy-joy maydoni belgilangan ijtimoiy normadan kam bo‘lgan), biroq o‘zining yoki birgalikda yashovchi oila a’zolarining nomida turar joy mavjud bo‘lmagan, xususiy uy-joy fondida ijara huquqi asosida istiqomat qilayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar;

qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar — nogironligi bo‘lgan voyaga etmagan (I guruh nogironligi bo‘lgan farzandi yoshidan qat’iy nazar) farzandini bevosita parvarishlayotgan ehtiyojmand xotin-qizlar.

Xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda o‘rganiladi:

- sektorlar ishchi guruhlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan mahallalarda fuqarolar yig‘inlari raislari va faollari bilan birgalikda barcha yo‘nalishdagi muammolarni har yili yanvar oyida uyma-uy yurish orqali;
- xotin-qizlarning murojaatlari, shu jumladan, «Ayollar maslahat kengashi» va «Ayollar daftari» axborot tizimi orqali.

- «Ayollar maslahat kengashi»ga va axborot tizimi orqali murojaat qilingan holatda, anketa-so‘rovnomalar mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan to‘ldirilib, sektor ishchi guruhiга taqdim qilinadi. Sektorlar rahbarlari va tumanlar (shaharlar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari birgalikda muammolarning haqqoniyligini o‘rganadi va har oyda o‘rganilgan va «Ayollar daftari»ga kiritilishi kerak bo‘lgan xotin-qizlar ro‘yxatini xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashiga taqdim etadi.

Xotin-qizlar quyidagi hollarda «Ayollar daftari»dan chiqariladi:

- har bir toifa bo‘yicha belgilangan amaliy yordamlar to‘liq ko‘rsatilganda (individual dastur asosida);
- to‘liq davlat ta’minotiga olinganda;
- o‘z arizasiga ko‘ra;
- «Ayollar daftari»ga noqonuniy kiritilganligi aniqlanganda;
- boshqa davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketganda;
- sudning ozodlikdan mahrum etishni nazarda tutuvchi hukmi qonuniy kuchga kirganda;
- shaxs vafot etgan taqdirda yoki sud qarori asosida bedarak yo‘qolgan deb topilganda.

Bugungi kunga kelib, "Ayollar daftari" tizimi orqali ehtiyojmand ayollar bilan ishslash natijasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Masalan, ayrim hududlarda moddiy yordam ko‘rsatish orqali iqtisodiy mustahkamlikka erishish, uy-joy bilan ta‘minlash, kasb-hunar o‘rgatish va bandlikni ta‘minlash kabi yo‘nalishlarda ijobiy natijalar qo‘lga kiritildi. Shuningdek, ko‘plab ayollarga psixologik va huquqiy maslahatlar ko‘rsatilib, ularning jamiyatda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam berilmoqda. Biroq tizimning samaradorligini oshirish uchun ba’zi muammolarni hal qilish zarur. Ayrim hududlarda moliyaviy resurslarning yetishmasligi, nodavlat tashkilotlar bilan samarali hamkorlik o‘rnatilmaganligi, qo‘llab-quvvatlash choralarining cheklangani tizimning samaradorligiga to‘siq bo‘lmoqda. Mamlakatning barcha hududlarida "Ayollar daftari" tizimini kengaytirish, bu boradagi texnologik imkoniyatlarni oshirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Ayrim hududlarda "Ayollar daftari" dasturini to‘liq amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar yetarli emas. Bu resurslarning cheklanganligi, ijtimoiy himoyaga

muhtoj ayollarga manzilli yordam ko'rsatish va ularga kerakli xizmatlarni taqdim etishni murakkablashtiradi.

"Ayollar daftari" tizimi samaradorligi ko'p jihatdan mahalliy davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar va jamoat birlashmalarining faol hamkorligiga bog'liq. Biroq, ba'zi joylarda bunday hamkorlikning to'liq yo'lga qo'yilmagani tufayli, tizimning amaliy samarasi pasaymoqda va ayollarning muammolari to'liq hal qilinmay qolmoqda. Ayrim hududlarda tizimni boshqarish jarayonida tizimli yondashuv yetarli emas. "Ayollar daftari"ning barcha yo'nalishlarini birlashtiradigan yagona mexanizmning yo'qligi ba'zi ayollarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va doirasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tizimni yanada rivojlantirish uchun yagona tizimli yondashuv zarur. "Ayollar daftari" tizimi ko'pincha an'anaviy usullar asosida amalga oshirilmoqda va texnologik yechimlar etarli darajada qo'llanilmagan. Bu esa ayollar ro'yxatini shakllantirish, ularni monitoring qilish va manzilli yordam ko'rsatish jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Raqamli platformalardan foydalanish tizim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ayollar huquqlarini himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash sohasida xalqaro tajriba yetarli darajada o'r ganilmagan yoki amalda tatbiq etilmagan. Xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar "Ayollar daftari" tizimining samaradorligini oshirish va ayollarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi. "Ayollar daftari" tizimida ro'yxatga olingan ko'plab ayollar o'z huquqlarini yetarlicha bilishmaydi yoki ularni amalda qo'llay olishmaydi. Bu esa ularga ko'rsatiladigan huquqiy yordamdan to'liq foydalana olmaslikka olib keladi. Ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, tizimning samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Ba'zi joylarda profilaktika inspektorlariga yuklangan vazifalar miqdori ularning imkoniyatlaridan oshib ketishi mumkin. Shuningdek, ayrim inspektorlarda ayollar bilan ishlash va ularning muammolarini hal qilish bo'yicha malaka yetishmovchiligi mavjud. Bu esa ularning samarali faoliyat yuritishini cheklab, ayollarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatiga ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.09.2016 yildagi O'RQ-407-son "Ichki ishlar organlari to'g'risida";
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023 yildagi PF-209-son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida";
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O'RQ-371-son "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida";
4. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi Qarori, 31.03.2022 yildagi 145-son "Xotin-qizlar muammolarini o'r ganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida";
5. " <https://advice.uz> " – O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy axborot portali.;
6. "Milliy xavfsizlik va jamoatchilikni himoya qilish" jurnali – Jinoyatchilikning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan ilmiy maqolalar;